

SOMONIYLAR DAVRIDA MOVARUNNAHRDA ME'MORCHILIK VA SHAHARSOZLIK TARAQQIYOTI

Umedulloyev Munirbek Mirzoqul o'g'li

Xursandov Elyor O'ktamovich

Termiz davlat Muhandislik
va agrotekhnologiyakar universiteti

“Bino va inshootlar qurilishi” kafedrası o'qituvchilari

munirbeku93@gmail.com

Annotasiya: Ushbu annotasiyada Arab xalifaligi tomonidan milodiy 670-yilda

Movarunnahrni zabt qilinishi, ko'plab shaharlar talon taroj qilinishi, istilo qilingan shaharlarda islom dinini tezroq targ'ib qilish maqsadida otashparastlik (zardushtiylik), buda dini, nasroniy va boshqa diniy maxsablarga tegishli imoratlarni buzib, yoqib yuborganliklarini, shundan so'ng IX asrni birinchi choragida O'rta Osiyo somoniylar amirligi tasarrufiga o'tishi va bu davrda madaniy taraqqiyot asta-sekinlik bilan yuksala borib, markazlashgan davlatga aylanishi, ana shu davrda yangi binolar turlari vujudga kelishi, jumladan masjidlar, minoralar, maqbaralar, madrasa, karvon saroy, sardoba, xonaqoh, dorus-shifo kabi yangi turdagi binolar shahar va qishloqlarda hamda boshqa aholi punktlari oralig'ida ko'plab bunyod etilganliklari to'g'risida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Arab xalifaligi, Movarunnahr, islom, otashparastlik (zardushtiylik), buda, nasroniy, masjidlar, minoralar, maqbaralar, madrasa, karvon saroy, sardoba, xonaqoh, dorus-shifo.

Arab xalifaligi qo'shinlari 670 - yildan boshlab ular Movarunnahrga bir necha bor yurishlar uyushtirishi natijasida, janubda joylashgan va katta madaniy hamda savdo markazi hisoblanmish Paykent shahrini, so'ng butun Buxoro vohasini va keyinchalik O'rta Osiyoni kattagina qismini bosib oladilar. Arablar o'zlari bosib olgan shaharlarni talon-taroj qilib, ko'plab vayronagarchiliklarni keltiradilar. Arablar o'zlari istilo qilgan hududlarda aholi ongiga Islom dinini tezroq singdirish maqsadida

otashparastlik (zardushtiy), budda dini, nasroniylik va boshqa diniy mazhablarga xoz imoratlarni buzib yoqib yuboradilar. Shundan so'ng mahalliy xalq yangi dinni butkul qabul qilib, madaniy hayotni yana qaytadan tiklab, obod shahar va qishloqlarni bunyod etgunicha ko'plab o'n yilliklar kechishiga to'g'ri keldi. Shunday qilib IX asrning birinchi choragida O'rta Osiyo samoniylar amirligi tasarrufiga o'tadi va bu davrda madaniy taraqqiyot asta - sekinlik bilan yuksala borib, markazlashgan davlat tuzilishiga olib kela boshlaydi.

Shu davrdan boshlab deyarli 400 yil mobaynida (*IX asr boshidan to XIII asr boshigacha*) , ya'ni mo'g'illar istilosi davrigacha, ichki nizolar tez- tez uchrab tursada, Movarounnahrda fan va madaniyatning yuksalish sur'ati o'sib dunyo fani taraqqiyotiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'rta Osiyo bu davr ichida butun dunyo xazinasiga algebra fanining asoschilaridan biri hisoblanmish buyuk matemaktik, astronom, jo'g'rofiyachi Muhammad Muso al-Xorazmiy (790-847 yillar), tabiatshunos va jamiyat-shunos olim Abu Bakr al-Roziy (864-925 yillar), sharq falsafasi asoschilaridan Abu Nasr al-Farobiy (872-950 yillar), mashhur qomusiy olimlar Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) va Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yillar) hamda boshqa bir qator olimlar, shoirlar va fozillarni berdi Adam Mes bu davrni O'rta Osiyoning uyg'onish davri deb atagan.

Arab istilosidan keyingi me'morchilik va shaharsozlikning dastlabki ranaqi Ismoil Somoniy (847-906 yillar) nomi bilan bog'liq. Somoniy Buxoroning Abu al-Abbos Tusiy tomonidan 830- yilda qurilgan devor-larini ta'mirlaydi, 11 ta ariq torttiradi, bir qancha saroylar bunyod etadi. Tarixchilarning ma'lumotiga ko'ra bu davrda Buxorodagi madrasalar soni butun Sharq mamlakatlaridagini qo'shib hisoblaganidan ko'p bo'lgan.

O'rta Osiyoning IX asrdan to XII asr boshigacha bo'lgan davrdagi tarixi siyosiy jihatdan garchi bir yaxlitlikka ega bo'lmasada, somoniylar, saljuqiylar, qoraxitoy va qoraxoniylar hamda xorazmshohlar hukmronligi vaqtida butun O'rta Osiyoda bir qadar markazlashgan hokimyat paydo bo'lib, mahalliy xalq madaniyatida

umumiylikni yuzaga keltiradi.

Bu davrga kelib feodal munosabatlar nihoyatda taraqqiy etib, shaharlarning ma'muriy ahamiyati o'sa borishi bilan birga, ular qizg'in savdo va hunarmandchilik markaziga aylana bordi. Shaharning strukturaviy asosini avvalgidek falakning to'rt tomoniga yo'nalgan va shahar markazida kesishib o'tgan ikki ko'cha tashkil etardi. Biroq shahar arki avvalgidek alohida tashqarida joylashgan istehkom tarzidamas, balki shahar devori ichida joylashadi. Buxoroning o'n bir darvozasi bo'lib, hozirgi eski shaharning yarmidan ko'proq qismini tashkil etgan.

Samarqand (Afrosiyob) hududi 218 ga yerni tashkil etib halqali mudofa devoriga ega bo'lgan. Hozirgi Hazrat Xizir masjidi o'rnida to'g'on joylashganligi aniqlangan. Unga Darg'om kanalidan suv keltirilib, damba yaqinidagi osma suv o'tkazgich (akvedkuk) orqali suv shaharlarning uch kanaliga tarqalgan. Shahar ko'chalari tog' toshi bilan ishlangan bo'lib, shahar o'z sistemasiga ega bo'lgan. Yangi binolar turlari vujudga kelib shahar ichida savdo markazi, ma'muriy maydon, jomye masjidleri, madrasalardan tashkil topgan markazchalar yuzaga keladi.

Ana shu davrlarda O'rta Osiyoda yangi binolar turlari vujudga keldi. Jumladan masjidlar, minoralar, maqbaralar, madrasa, karvon saroy, sardoba, xonaqoh, dorus-shifo (kasalxona) kabi yangi turdagi binolar, turarjoylar, hammomlar shu kabi boshqa binolar shahar va qishloqlarda hamda boshqa aholi punktlari oralig'ida ko'plab qurildi. IX asr boshlarida binolar qurilishida asosan, xom g'isht, paxsa ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik pishiq g'isht ma'muriy va jamoa binolari qurilishida asosiy material bo'lib qoldi. Turar joy binolari qurilishida esa sinchli loysuvoq qatorida ganchning har xil turlari ishlatilgan. Keyinroq sirlanmagan koshin va sopol plitkalar, XII asrga kelib qisman sirlangan yaxlit uymakorlikda pishirilgan loy bo'laklari - parchin (mayolika) ishlatish usuli kashf etildi.

Eng qadimgi obidalardan Qadimiy Xorazmdagi Qavat qal'a, Samarqand (Afrasiyob) dagi somoniylar qasrining bir qismi va Termez yaqinidagi Qirq qiz qal'asini qayd etish mumkin.

Umuman olganda IX-XII asrga oid maqbaralar O'rta Osiyo hududida anchagina

saqlanib qolgan. Bular jumlasiga Termez yaqinidagi Sulton Saodat kompleksidagi, O'zgan, Miyona, Seraxs, Mari (Ko'hna Marv) dagi va boshqa maqbaralar kiradi. Shularning ichida ayniqsa Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi diqqatga sazovordir. Ushbu maqbara devorlarining qalinligi 5 metrni tashkil etib, maqbaraning ichki tomonlari 17 metrni tashkil etuvchi kvadratdan iboratdir. Ichki balandligi 35 metrga teng bo'lgan bu imorat nihoyatda mahobatlidir. Kirish eshigi g'arb tomonda joylashgan. To'rtburchak qismning balandligi 15 metrga teng. Undan yuqori gumbazga o'tivchi sakkizburchak qismi tashqi va ichki tarafdan ravoqdor galereyani tashkil etadi. Sakkiz burchakning har uchidan gumbaz konstruksiyasini tashkil etuvchi qobirg'alar interyerda ko'rinib turadi. Ularning o'zaro kesishgan toqlari ("linga zarba" usuli) majmuasidan iboratdir. Bino g'isht va ganchdan iborat girih hamda chizma naqshlar bilan ziynatlangan. Gumbaz tashqi ko'rinishi moviy rangda bo'lganligi haqida o'sha vaqtda yashab o'tgan mualliflarning ma'lumoti saqlanib qolgan. Sirli koshinning qo'llanila boshlanishi mana shu davr ya'ni XII asrdan boshlanganligini ko'pgina olimlar qayd etganlar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, IX-XII asrlarda qator yangi turdagi binolar barpo etildiki, ularning ahamiyati keyingi davr shaharsozligi va me'morchiligi taraqqiyotida benihoya katta bo'ldi. Jumladan masjidlar qurilishi alohida ahamiyat berildi. O'rta Osiyoda dastlabki masjidlar Marv va Buxoroda VIII asr boshlarida qurilganligini tarixchilardan Istahriy va Narshahiylar xabar berishadi. Dehiston (Mashhadi Misriyona) dagi Shiri Kibir va barsiyonadagi (Turkmaniston) respublikasi masjid qoldiqlari VIII-IX asrlarda qurilgan bunday imoratlar - chortoq yoki kiosk tipidagi masjidlar namunasi bo'lib xizmat qiladi. Keyinchalik ushbu masjidlar turi taraqqiy etib, mehrob tomoni alohida bezatiladi va uning qarshisidan birgina kirish qismi joylashtiriladi. Natijada Marv vohasidagi Talxatan bobo va Buxorodagi Mag'oki (yashirincha) attori kabi pishiq g'ishtdan qurilib usti gumbazli XI - XII asrlar masjidi yuzaga keladi.

Hovlili masjidlarning birinchi bunyod etilganlaridan biri Afrosiyob qazishmalaridan ma'lum. Somoniylar davrida paxsa va 52 x 26F12 sm o'lchamli xom

g'ishtdan bunyod etilgan bu masjid dastlab tashqi tomonlari 84,6 x 84,6 metr li kvadrat tarzida bo'lgan. Uning ichki hovlisining to'rt tomonida xom g'ishtdan tiklangan ustunlar ko'tarib turgan ayvonlar bo'lgan. Keyinchalik masjid bir necha marta qurilib, 1220 yilda uning tomonlari o'lchamlari 84,6 x 137,4 metrni tashkil etgan.

Shu davr ya'ni X-XI asr masjidlaridan yana Termezdagi Chorsutun va Karmana yaqinidagi Hazora qishlog'idagi Deggaron masjidlarini aytib o'tish lozim. Deggaron masjidi pishiq g'ishtdan bunyod etilgan to'rt silindirik ustunlar vositasida yopilgan imorat bo'lib, to'rt ustunning ustida diametri 6,4 metr bo'lgan markaziy gumbaz va uning atrofida 8 ta yana kichikroq gumbazlar bino yopmasini tashkil etadi.

Tarixchi Muhammad Narshahiyning ma'lumotlariga qaraganda Buxoroda (shu jumladan Movarunnahrda) gi ilk masjid 713 yilda shu shahar arkida sanamlar butxonasi o'rnida qurilgan. Ayni shu tarixnavis Buxoro markazidan o'tadigan Shohrud yoqasida, sanam va but bozori yaqinida joylashgan ibodatxonani qayta qurish natijasida paydo bo'lgan Moh masjidi haqida ham yozadi. V.V. Bortold va undan keyingi olimlar bu masjidni hozirgi Mog'oki Attori (hozirgi peshtoqli XII asrda qurilgan, asos qismlari X asr) o'rnida bo'lgan deb taxmin qilishadi.

1940-1980 yillardagi arxeologik izlanishlar natijasida shaharlarni bir-biri bilan bog'lovchi qadimgi va o'rta asrlar karvon yo'llari aniqlangan edi. Ushbu karvon yo'llarida qal'alar va sardobaga ega karvonsaroylar ma'lum bir masofalarda joylashgan. Ushbu janubiy-g'arbdan shimoliy sharqqa qarab cho'zilgan ko'chalar islom sivilizasiyasining tarqalish yo'nalishini aks ettiradi. Ushbu yo'lda aniqlangan ko'pchilik yodgorliklar IX-XII asrlarga mansubdir. Arab xalifaligining tanazzuli va 840 yildagi Qoraxoniylar turk sulolasining shakllanishi bilan Buxoroning shahriston va arki rabod devori bilan o'rab olinadi. Bu Samarqand arki va rabodi uchun model vazifasini o'tagan.

Arablar shahar vohalaridagi ko'chmanchilardan himoya qilib turuvchi devorlarni yangiladilar va ular yo'nalishi bo'ylab chegara mustahkam rabotlarini qurdilar. VIII-IX asrlarda Xorazm qo'rg'onlar va qo'riqlovchi burjlar orqali

mustahkamlanib, o'z chegaralarini ko'chmanchi turk qabilalaridan himoyalagan edi. Samarqand va uning atrofidagi manzilgohlar quldorlik davrlaridayoq Devori Qiyomat devori bilan o'ralgan edi. Devori Qiyomatning 9 ta darvozasi bo'lgan. Buxoro vohalari esa Kampir Devor bilan himoyalangan edi.

Samarqand va Buxoro vohalarida bo'lgani kabi, Balx vohasi ham ko'chmanchilar hujumiga qarshi 12 ta darvozaga ega 70 km uzunlikdagi devor bilan to'sib olingan edi. Shahar shahriston va raboddan iborat edi. Qachonki shahar hayoti shahristondan rabodga ko'cha boshlagach, rabodda savdogarlar va hunarmandlar hayoti boshlangach "Ismoil Somoniy Balxni O'rta Osiyoning Buxoro va Samarqanddan so'ng uchinchi shahri bo'lganligini ta'kidlaydi va ularni Qubbat ul-Islom (Islom Gumbazi) deb ataydi".

Bu vaqtda tashqi shahar - shahri berun va ichki shahar esa - shahri darun deb nomlangan. Ushbu nomlarni ko'chmanchilar shaharning o'ziga nisbatan - shahri berun, uning arkiga nisbatan esa shahri darun deb ham qo'llashgan. Samarqandda, uning vohalari (Devori Qiyomat devorida) shahri berunga tenglashtiriladi, shahar atroflari esa (Devori Ko'ndalang devori ichi) shahri darunga tenglashtirilishi mumkin.

Ushbu shahar atroflarining o'zlashtirilishi natijasida aytish mumkinki, ko'chmanchilar IX-XV asrlarda shaharlarning urbanizasiya- lashuviga ta'sir ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dusbekov, T., & Umedulloev, M. (2021). LINKING A MODERN INTERACTIVE METHOD TO THE METHOD OF AUDIO SLIDE PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. Экономика и социум, (12-1 (91)), 194-198.
2. O'G'Li, U. M. M. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARUV VAZIFALARI. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 91-95.
3. RAQAMLASHTIRISH TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING TEXNIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHIRISH (MATERIALLAR QARSHILIGI FANI

- MISOLIDA). (2025). Zamonaviy ta'lim va rivojlanish, 23(3), 264-267. <https://scientific-jl.com/mod/article/view/7669>
4. MMUmedulloyev, E.O'. Xursandov. (2023). YOG`OCH MATERIALLAR VA ULARNING STRUKTURASI TARKIBIY TUZILISHI VA VAZIFASI. IQRO, 7(1), 210–216. <https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/3528> dan olindi
5. Ziyodullayeva Madina Ilhomova, & Umidullayev Munirbek Mirzoqul o'g'li. (2022). KIMYOVIY QO'SHIMCHALARNING BETON ARASINING XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(05), 205–206. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/SBPXZ>